

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

**LOGOPEDIYA
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60112700 – Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)

Fan/modul kodi Log1404	O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Logopediya		60	60	120
I.Fanning mazmuni				
Fanning asosiy maqsad – talabalarda nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari, nutq kamchiliklarining xilma-xilligi, nutq kamchiliklarini tekshirish, nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning nutq kamchiliklarini turlariga qarab bartaraf etish metodikalarini to'g'ri tanlay olish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga nutq buzilishlarni keng tarqalganligi, alomatlari, darajasini aniqlash, nutq buzilishlarini pedagogik diagnostikasi, metodlari, bartaraf etish metodikalarini o'rgatishdan iborat.				
Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Logopediya fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Sauthgempton universiteti (Buyuk Britaniya)ning Psixolingvistika fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 80-o'rinni egallagan bo'lib, o'z sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Sauthgempton universitetining Psixologiya kursida nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy munosabatlarini tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar BKM holatlarni mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar.				
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)				
II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				
1-mavzu. Logopediya fanining maqsadi va vazifalari				
Logopediya fanining maqsadi va vazifalari. Logopediya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Logopediyaning metodologik asoslari.				
2-mavzu. Logopediya fanining metodlari va tamoyillari				
Tashkiliy, empirik, miqdor va sifat analizi, interpretatsion metodlar. Sistemalilik, komplekslilik, rivojlanish tamoyili, nutq buzilishini bolaning psixik rivojlanishidagi boshqa tomonlari bilan o'zaro bog'liqligi, faoliyatli yondoshuv, ontogenetik tamoyil, etiologiya va mexanizmlarni hisobga olish				

tamoyili (etiopatogenetik tamoyil), nuqsonli nutqning buzilish alomatlari va tuzilishini hisobga olish, umumdidaktik va boshqa tamoyillar.

3-mavzu. Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmi, nutq buzilishlarini sabablari, nutq buzilishlarini tasnifi

Nutq buzilishlari etiologiyasi. Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari. Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoyillari. Nutq buzilishlarini tasniflash. Bolalar nutqining rivojlanish hususiyatlari.

4-mavzu. Ovoz buzilishlari, uning sabablari va mexanizmi. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda tayyorlov va asosiy bosqichi

Ovoz apparati va hiqildoqning ovoz hosil qilishi funksiyasi. Ovoz apparatining akustikasi va ovozning akustik tuzilishi. Ovoz huruji. Rigistrlar. Ovoz paydo bo'lishi nazariyalari. Bolalar ovozining rivojlanishi.

Ovoz buzilishlarining etiologiyasi. Ovoz buzilishlarini kelib chiqish sabablari va mexanizmi. Ovozda o'zgarishlar (buzilishlar) ning sabablari va turlari. Ovoz buzilishining tasnifi. Organik ovoz buzilishlari. Funksional ovoz buzilishlari. Ovoz buzilishlarini bartaraf etish. Ovoz buzilishlari profilaktikasi va ovoz gigiyenasi.

5-mavzu. Dislaliya sabablari va shakllari, dislaliya turlari va uning namoyon bo'lishi. Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi

O'zbek tili tovushlari tasnifi. Bolalarda nutq tovushlarini ontogenezdada shakllanishi va rivojlanishi. Dislaliya haqida tushuncha. Dislaliyani o'rganish tarixi. Dislaliya sabablari. Dislaliya turlari (sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm, kappatsizm, yumshatish nuqsonlari). Tovush talaffuzi va nutq eshituv idrokining buzilishi (fonetik, fonematik va fonetik-fonematik).

Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi. Tovush talaffuzi buzilishlarini bartaraf etish usullari. Logopedik ish davrlari: tayyorlov, tovushni nutqqa qo'yish, tovushni nutqda mustahkamlash, tovushlarni ajratish (differentsiyalash), tovushni nutq faoliyatiga kiritish. Har bir davrning vazifasi va ish usullari.

6-mavzu. Rinolaliyaning shakllari va sabablari, rinolalik bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari

Logopedik yordam ko'rsatishni rivojlantirish. Rinolaliya shakllari. Ochiq rinolaliya. Yopiq rinolaliya. Aralash rinolaliya. Tanglaydagi tug'ma yoriqlarning bolaning jismoniy, ruhiy va nutqiy rivojlanishiga ta'siri. Rinolaliyada nutqning o'ziga xos xususiyatlari.

Rinolaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqini tekshirish metodikasi. Rinolaliyani bartaraf etishda operatsiyagacha va operatsiyadan keyingi davr.

Rinolalik bolalarga kompleks, ya'ni tibbiy-pedagogik ta'sir logopedik ishning bir qismi sifatida. Ochiq rinolaliyada logopedik ishning asosiy tamoyillari. Operatsiyagacha va operatsiyadan keyin olib boriladigan logopedik ish metodikasi. Rinolaliyada tovushlarni nutqqa qo'yishning o'ziga xos xususiyatlari. Rinolaliyada ovoz buzilishi va uni korreksiyalash.

7-mavzu. Dizatriyani kelib chiqish sabablari. Dizatriya shakllari (tasniflari). Dizatriyani bartaraf etishda logopedik ish

Dizartriya haqida tushuncha. Dizartriya nutq buzilishini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Dizartriyaning sabablari. Dizartriya–bolalar syerebral falaji kasalligining belgisi sifatida. Dizartriya tasnifi. Asosiy shakllari va ularning belgilari. Dizartrik bolalarning salomatligi, psixik va nutq taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalar nutqini logopedik tekshirish metodikasi. Dizartriyaning bartaraf etishda logopedik ish. Artikulyatsiya (talaffuzning aniqligi), umumiy va mayda motorikaning (nutqga dahldor va dahldor bo'lmagan) buzilishi. Dizartriyaning bartaraf etishda korreksion-pedagogik ishlar tizimi. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarning vazifalari, korreksion ish metodlari va usullari. Dizartriya nutqiy nafas va ovoyni rivojlantirish. Tovushlar talaffuzini korreksiyalash.

8-mavzu. Alaliya sabablari, shakllari, mexanizmlari va tasnifi. Alaliyani tekshirish metodikasi

Alaliya–nutqning sistemali (surunkali) rivojlanmaganligi. Alaliyani o'rganish tarixi. Alaliya sabablari va mexanizmi. Alaliya shakllari. Alaliyani tasniflash. Motor alaliya. Alaliyada nutqning leksik-grammatik va fonetik tomondan buzilishi. Alalik bolalarning nutqni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari. Motor alalik bolalar nutqining leksik-grammatik va fonetik-fonematik tavsifi. Motor alaliyada korreksion ta'sir tizimi. Sensor alaliya. Sensor alaliyaning asosiy belgilari. Sensor alaliyalik psixologik-pedagogik va nutqiy xususiyatlari.

9-mavzu. Afaziya sabablari, shakllari, mexanizmlari va tasnifi. Afaziyaning tekshirish metodikasi

Afaziya - uning sabablari va mexanizmi. Afaziyaning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Afaziya tasnifi. Afaziya shakllari va ularning namoyon bo'lish sabablari. Bolalarda afaziyaning kechishi xususiyatlari. Afaziya korreksion-tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari. Reabilitatsion ta'limning tamoyil va metodlari. Afaziyaning barcha shakllarini bartaraf etishda korreksion-logopedik ish tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

10-mavzu. Yozma nutq buzilishlarining ilmiy – nazariy asoslari. Disleksiya va disgrafiyaning tasnifi

Yozma nutqdagi kamchiliklarini o'rganish tarixi. O'qishning psixologik akti. Mye'yorda o'qishni o'zlashtirish jarayoni.

Disleksiya. Disleksiya tasnifi. O'qish va yozishdagi kamchiliklari bo'lgan bolalarni tekshirish. Tovush-harf jarayonini o'zlashtirish jarayoni. Bo'g'inlab o'qish bosqichi. So'zlarni butun o'qish. Sintetik o'qish bosqichi.

Disgrafiya. Disgrafiya tasniflari. Yozuv jarayonining psixik-fiziologik qurilishi. Yozuv jarayonini operatsiyalari.

Yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etishda olib boriladigan logopedik ishlar metodikasi.

11-mavzu. Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini tekshirish va bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan ish mazmuni, korreksion ishni tashkil etish va rejalashtirish

Fonetik-fonematik nutq kamchiligi haqida tushuncha. Fonetik-fonematik nutq buzilishini (FFN) turli darajadagi ko‘rinishlari, tavsifi. Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini tekshirish.

Fonetik-fonematik nutq kamchiligini bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan ish mazmuni, korreksion ishni tashkil etish va rejalashtirish.

12-mavzu. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar tasnifi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirish metodikasi

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi haqida tushuncha. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar tasnifi. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligining darajalari va ularning namoyon bo‘lishi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirish.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligining har bir darajasini bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishni tashkil etish va rejalashtirish.

13-mavzu. Duduqlanishning psixofiziologik mexanizmlari. Duduqlanishning tipologiyasi. Duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan logopedik korreksion logopedik ishlar

Duduqlanishni o‘rganish va uni bartaraf etishning qisqacha tarixi. Duduqlanishning psixofiziologik mexanizmlari. Duduqlanishning tipologiyasi. Duduqlanish tabiati va xarakteri xususida zamonaviy nuqtai nazarlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanish kechishining xususiyatlari. Duduqlanish – muomala (kommunikatsiya) vositasining buzilishi sifatida. Duduqlanish nutq kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar nutqini tekshirish. Duduqlanuvchi bola nutqini to‘g‘irlash va shaxsini tarbiyalashga oid logopedik ishning asosiy yo‘nalishlari.

Maktab yoshdagi, o‘smirlar va katta yoshdagi duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan logopedik korreksion logopedik ishlar. Duduqlanuvchi bolaning nutqi va shaxsiga bevosita va bilvosita logopedik ta’sir.

14-mavzu. Nutq buzilishining patogenzi, klinikasi

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi haqida tushuncha. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar tasnifi. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligining darajalari va ularning namoyon bo‘lishi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirish.

15-mavzu. Nutq tempining buzilishi bradilaliya, taxilaliya tushunchalari

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligining har bir darajasini bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni. Nutq tempi buzilishlarini bartaraf etishda logopedik ishlar. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishni tashkil etish va rejalashtirish.

4-modul. Til va miya Sistemali nutq buzilishi.*

Alaliya– nutqning sistemali (surunkali) rivojlanmaganligi. Alaliyani o‘rganish tarixi. Alaliya sabablari va mexanizmi. Alaliya shakllari. Alaliyani

tasniflash. **Motor alaliya.** Alaliyada nutqning leksik-grammatik va fonetik tomondan buzilishi. Alalik bolalarning nutqni o'zlashtirishidagi qiyinchiliklari. Motor alalik bolalar nutqining leksik-grammatik va fonetik-fonematik tavsifi. Motor alaliyaning nutqiy bo'lmagan belgilari. Motor alaliyada korreksion ta'sir tizimi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Logopediya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi
2. Logopediya fanining metod va tamoyillari
3. Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmi. Nutq buzilishlarini etiologiyasi va tasnifi
4. Ovoz buzilishlari, uning sabablari va mexanizmi. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda tayyorlov va asosiy bosqichi
5. Dislaliya sabablari va shakllari, dislaliya turlari va uning namoyon bo'lishi. Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi
6. Rinolaliyaning shakllari va sabablari, rinolalik bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari
7. Dizartriya kelib chiqish sabablari. Dizartriya shakllari (tasniflari). Dizartriya bartaraf etishda logopedik ish
8. Alaliya sabablari, shakllari, mexanizmlari va tasnifi. Alaliyani tekshirish metodikasi
9. Afaziya sabablari, shakllari, mexanizmlari va tasnifi. Afaziya tekshirish metodikasi
10. Yozma nutq buzilishlarining ilmiy – nazariy asoslari. Disleksiya va Disgrafiyaning tasnifi
11. Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini tekshirish va bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan ish mazmuni, korreksion ishni tashkil etish va rejalashtirish
12. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar tasnifi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirish metodikasi
13. Dudaqlanishning psixofiziologik mexanizmlari. Dudaqlanishning tipologiyasi. Dudaqlanuvchilar bilan olib boriladigan logopedik korreksion logopedik ishlar

14. Til buzilishi: miyada tilni tashkil qilish*

15. Nutq tempining buzilishi bradilaliya, taxilaliya tushunchalari

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;

	- glossariy tuzish; - individual va guruhiy o‘quv loyihasi; - keys-topshiriqlarini bajarish; - mavzuli portfoliolar tuzish; - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; - manbaalar bilan ishlash; - infografika tuzish; - chizma-tasviriylar modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish; - multimedialar taqdimotlar yaratish; - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash; - darsdan tashqari mashg‘ulotlar ishlanmalarini tayyorlash; ta’lim yo‘nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’limning mavzulari: 1. Logopediya fanining umumiy masalalari 2. Nutq faoliyatining xususiy patologiyasi 3. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar 4. Sistemali nutq buzilishi 5. Yozma nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etish 6. Fonetik-fonematik nutq buzilishlariga ega bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash 7. Nutqi to‘liq rivojlanmagan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash 8. Duduqlanish 9. Nutq tempining buzilishi 10. Rinolaliyaning shakllari va sabablari Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) - nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari, nutq kamchiliklarining xilma-xilligi, nutq kamchiliklarini tekshirish, nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning nutq kamchiliklarini turlariga qarab bartaraf etish metodikalarini to‘g‘ri tanlay olishni bilishi kerak; - talaba rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus korreksion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini ilmiy asoslagan holda to‘g‘ri tanlay olishi, nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nuqsonlarini tasniflash, korreksiyalash, maxsus adabiyotlarni taxlil etish, bolalarni nutq nuqsonlarini bartaraf etish uchun didaktik materiallarni tanlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; - talaba korreksion pedagogik jarayonni nazariy-amaliy taxlil etish, ta’limni tashkil etish shakllari, usullarini amalda samarali qo‘llash, ota-onalar bilan ishlash, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta’lim-tarbiya

	nazariyasini amalda qo'llash malakalariga ega bo'lishi lozim.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1.S.Umarova "Maxsus pedagogikaning klinik asoslari" T-2020 2. "Maktabgacha surdopedagogika" Jamoa T-2022 3. "Logoritmika" L.Xayitov, I.Xaydarov, M.Xoboboyeva Far-2023 4. M.Maxmudova "Logopediya" T-2021 5.X.Raximova "Koxlear implanti bolalar bilan logopedik ish" T-2021 Qo'shimcha adabiyotlar 6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil 7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil 8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent "O'zbekiston" 2016 yil 9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak 10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz 11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

	FARMONI 1. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrda "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni. Axborot manbaalari http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi sayti. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi sayti. http://www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali. http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumatining portali. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlar milliy bazasi sayti http://www.kun.uz – O‘zbekiston va jahon yangiliklari, eng so‘nggi xabarlar sayti https://www.southampton.ac.uk/courses/modules/educ1042#syllabus
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
9.	Fan/modul uchun ma’sullar va mualliflari: M.S.Maxmudova – QDU Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasida katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD) M.Xovodillayev - QDU Maxsus pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi